Bugungi kunda qurilish tarmog‘i milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘sishini ta’minlovchi, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani kengaytiruvchi strategik sohalardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda 2025-yilda 313,9 trln so‘mlik qurilish ishlari bajarilgani hamda ushbu ko‘rsatkichning o‘tgan yilga nisbatan 14,2 foizga oshgani tarmoqning iqtisodiy faollikdagi o‘rni tobora kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Qurilish tarmog‘ida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi yuqori bo‘lishi bilan birga, yirik qurilish tashkilotlari ham kapital sig‘imi katta bo‘lgan loyihalarni amalga oshirishda muhim mavqega ega. Xususan, 2025-yilda qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 47,8 foizni, yirik qurilish tashkilotlari ulushi esa 26,4 foizni tashkil etgani ushbu ikki toifadagi subyektlar iqtisodiy samaradorligini alohida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi[1].

Mazkur sharoitda qurilish korxonalari faoliyatining samaradorligini oshirish nafaqat ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, balki investitsiya resurslaridan oqilona foydalanish, innovatsiyalarni joriy etish, boshqaruv sifatini yaxshilash va mehnat unumdorligini oshirish bilan ham uzviy bog'liq,. OECD tadqiqotlarida innovatsion faoliyat, investitsiya tarkibi, tashkiliy kapital va xalqaro integratsiya mahsuldorlik o'sishini rag'batlantiruvchi muhim omillar ekani qayd etilgan. Shuningdek, 2025-yilgi OECD mahsuldorlik ko'rsatkichlari to'plamida investitsiyalar, firma hajmi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi bog'liqlik iqtisodiy samaradorlikni baholashda muhim metodik asos sifatida ko'rsatilgan[2].

Qurilish tarmog'ida ayniqsa kichik va yirik korxonalar o'rtasida moliyaviy imkoniyatlar, texnologik baza, boshqaruv salohiyati va innovatsiyalarni joriy etish darajasi bo'yicha sezilarli tafovutlar mavjud,. Kichik korxonalar ko'proq moslashuvchanlik va ixtisoslashuv afzalligiga ega bo'lsa, yirik korxonalar yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish, resurslarni jamlash va texnologik yangilanishni tezlashtirish imkoniyatiga ega. Shu sababli ularning iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi investitsion-innovatsion mexanizmlar ham differensial yondashuv asosida takomillashtirilishi lozim,.

Bugungi islohotlar sharoitida xususiy sektorni rivojlantirish, raqobat muhitini kuchaytirish va investitsion faollikni rag'batlantirishga qaratilgan institutsional choralar ushbu masalaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Jahon banki tomonidan O'zbekistonda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va bozor iqtisodiyotiga o'tishni jadallashtirishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlarining ilgari surilishi ham investitsion mexanizmlarni takomillashtirish zaruratini tasdiqlaydi[3].

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalar iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda investitsion-innovatsion mexanizmlarni takomillashtirish masalalari jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlarda turli jihatlarda o'rganilgan.

Jahon olimlaridan Nallari va boshqalar kichik biznesni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sish va bandlikni ta'minlash mexanizmlarini asoslab bergan [4]. Ademola (2014) tadqiqotlarida korxonalarda moliyaviy resurslarni samarali boshqarish investitsion samaradorlikni oshirishning muhim omili ekanligi ko'rsatilgan [5]. Boso va boshqalar (2017) esa moliyaviy resurslar zaxirasi innovatsion faoliyatni rag'batlantirish va korxonalar barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi [6].

Rus olimlaridan Voronin (2011) investitsion-qurilish faoliyatida integratsiya jarayonlarini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqqan bo'lib, u korxonalar o'rtasida resurslarni birlashtirish samaradorlikni oshirishini asoslaydi [7]. Folomeev (2012) esa qurilish sohasida kichik korxonalar faoliyatini boshqarishni takomillashtirish orqali ularning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkinligini ko'rsatgan [8].

MDH mamlakatlari olimlaridan Yashin va boshqalar (2015) innovatsion rivojlanish samaradorligini baholash mexanizmlarini ishlab chiqqan [9]. Krakovich (2018) kichik innovatsion korxonalarda resurslarni integratsiyalashgan boshqarish usullarini taklif etgan [10]. Nesterenko (2008) esa kichik innovatsion biznesni rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlashining muhim ahamiyatini asoslab bergan [11].

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan G'ulomov va Abdullaev (2016) innovatsion salohiyatning iqtisodiy rivojlanishdagi rolini tahlil qilgan [12]. Qosimova (2023) tadqiqotlarida tadbirkorlik va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yoritilgan [13]. Gafurov (2016) esa kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish orqali uning samaradorligini oshirish mumkinligini asoslab bergan [14].

Yuqoridagi tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes, innovatsion rivojlanish va investitsion jarayonlar alohida yo'nalishlarda chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi integratsiya asosida investitsion-innovatsion mexanizmlarni kompleks takomillashtirish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Bu esa mazkur yo'nalishda chuqur ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda kichik va yirik biznes subyektlari integratsiyasining iqtisodiy samaradorligini baholash maqsadida bir qator ilmiy usullardan foydalanildi. Jumladan, iqtisodiy jarayonlarni o'rganishda tahlil va sintez, taqqoslama tahlil hamda statistik tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlashda iqtisodiy-matematik yondashuvlardan foydalanildi. Olingan natijalarni umumlashtirish asosida kichik va yirik biznes integratsiyasi samaradorligini baholash bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida qurilish sohasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va texnologik rivojlanishini ta'minlovchi muhim tarmoqlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda sohani modernizatsiya qilish, zamonaviy

texnologiyalarni joriy etish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Natijada qurilish tarmogʻining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortib bormoqda va u iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda.

Qurilish tarmogʻida kichik va yirik korxonalar oʻrtasidagi integratsiya jarayonlari samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kichik korxonalar ixtisoslashgan xizmatlar koʻrsatish, subpudrat ishlarini bajarish va innovatsion yechimlarni joriy etish orqali faol ishtirok etsa, yirik korxonalar yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish va kompleks boshqaruvni taʼminlaydi. Bu esa ular oʻrtasida kooperatsiya munosabatlarining rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kichik va yirik korxonalar oʻrtasidagi oʻzaro munosabatlarni baholashda integratsion indeks muhim iqtisodiy koʻrsatkich hisoblanadi. Ushbu indeks korxonalar oʻrtasidagi iqtisodiy aloqalar samaradorligi, resurslardan foydalanish darajasi hamda kooperatsiya munosabatlarining sifatini baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, u korxonalarning tashqi va ichki iqtisodiy muhitga moslashuvchanligini ham tavsiflaydi.

Integratsion munosabatlarning rivojlanishi investitsion va innovatsion jarayonlar bilan uzviy bogʻliq boʻlib, ularning samarali amalga oshirilishi qurilish tarmogʻida sinergetik samarani taʼminlaydi. Yaʼni, kichik va yirik korxonalar hamkorligi natijasida olinadigan umumiy iqtisodiy natija alohida korxonalar natijalarining oddiy yigʻindisidan yuqori boʻladi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, innovatsiyalarni tez joriy etish va umumiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Qurilish sohasida innovatsion rivojlanishni taʼminlashda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Xususan, raqamli texnologiyalar, energiya tejamkor materiallar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, BIM (Building Information Modeling) texnologiyasini qoʻllash qurilish jarayonlarini raqamli muhitda boshqarish, axborot almashinuvini samarali tashkil etish va resurslarni tejash imkonini beradi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni samarali tashkil etishda kichik va yirik korxonalar oʻrtasida vazifalarni maqsadli taqsimlash muhim ahamiyatga ega. Yirik korxonalar moliyaviy va texnologik imkoniyatlari asosida innovatsion loyihalarni amalga oshirishda yetakchi rol oʻynasa, kichik korxonalar yuqori moslashuvchanligi orqali innovatsiyalarni amaliyotga tez joriy etish imkoniyatiga ega (1-jadval).

1-jadval. Qurilish tarmogʻida kichik va yirik korxonalar oʻrtasida vazifalar taqsimoti va integratsion rollari

| № | Faoliyat yoʻnalishi | Kichik korxonalar roli | Yirik korxonalar roli | Integratsion natija |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Loyihalashtirish va injiniring | Ixtisoslashgan xizmatlar, dizayn yechimlar | Kompleks loyihalarni boshqarish | Loyihalar sifatining oshishi |
| 2 | Qurilish ishlari | Subpudrat ishlarini bajarish | Bosh pudratchi sifatida umumiy nazorat | Vaqt va xarajatlarni qisqartirish |
| 3 | Innovatsiyalarni joriy etish | Yangi texnologiyalarni tez tatbiq etish | Innovatsiyalarni moliyalashtirish | Texnologik rivojlanish |
| 4 | Moliyaviy resurslar | Cheklangan resurslar | Katta investitsiya salohiyati | Moliyaviy barqarorlik |
| 5 | Raqamli texnologiyalar (BIM) | Tez moslashish va amaliyotga joriy etish | Yirik loyihalarda joriy qilish | Axborot almashinuvi samaradorligi |
| 6 | Boshqaruv va tashkil etish | Moslashuvchan boshqaruv | Strategik va markazlashgan boshqaruv | Boshqaruv samaradorligining oshishi |
| 7 | Risklarni boshqarish | Lokal risklarni kamaytirish | Yirik risklarni diversifikatsiya qilish | Risklarni optimal taqsimlash |
| 8 | Mehnat resurslari | Malakali ixtisoslashgan kadrlar | Keng koʻlamli ishchi kuchi | Mehnat unumdorligining oshishi |

Ushbu jadvaldan koʻrinib turibdiki, qurilish tarmogʻida kichik va yirik korxonalar oʻrtasida vazifalarning maqsadli taqsimlanishi ularning oʻzaro integratsiyasini kuchaytiradi. Kichik korxonalarning moslashuvchanligi va innovatsion faolligi yirik korxonalarning moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari bilan uygʻunlashganda sinergetik samara yuzaga keladi. Bu esa qurilish jarayonlarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Qurilish tarmogʻida investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmini shakllantirishda innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion infratuzilma tarkibiga ilmiy tadqiqot markazlari, texnoparklar, innovatsion klasterlar, injiniring va konsalting markazlari hamda startaplarni qoʻllab-quvvatlash tizimlari kiradi. Ushbu tuzilmalar yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish orqali qurilish sohasida innovatsion faoliyatni ragʻbatlantiradi.

Innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi kichik va yirik biznes subʼektlari oʻrtasida texnologik hamkorlikni kuchaytiradi, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish hamda raqamli transformatsiyani taʼminlashga xizmat

qiladi. Xususan, BIM texnologiyalari, raqamli boshqaruv platformalari va zamonaviy qurilish materiallarini joriy etish qurilish jarayonlarining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, qurilish tarmog‘ida innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish kichik va yirik korxonalar o‘rtasidagi integratsiya bilan bevosita bog‘liq. Yirik korxonalar moliyaviy va texnologik resurslar bilan ta’minlasa, kichik korxonalar yuqori moslashuvchanlik va ixtisoslashgan faoliyati orqali innovatsiyalarni amaliyotga tez joriy etadi. Bu esa o‘zaro to‘ldiruvchi hamkorlikni shakllantirib, tarmoqda innovatsion rivojlanish uchun qulay sharoit yaratadi.

Shu nuqtai nazardan, qurilish tarmog‘ida kichik va yirik korxonalar integratsiyasi asosida investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmini shakllantirish muhim hisoblanadi. Ushbu mexanizm investitsiyalarni jalb qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq qilish va raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvni tashkil etish kabi o‘zaro bog‘liq elementlarni qamrab oladi.

Mazkur mexanizmning asosiy maqsadi resurslardan samarali foydalanish, texnologik yangilanishni ta’minlash va korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishdan iborat. Bu jarayonda davlat tomonidan yaratilgan institutsional muhit, investitsiya siyosati va innovatsion infratuzilma hal qiluvchi ahamiyatga ega. (1-rasm)

Ushbu sxema qurilish tarmog‘ida kichik va yirik biznes sub’ektlari integratsiyasi asosida investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalaydi. Mexanizmning asosini davlat siyosati va institutsional muhit tashkil etib, u investitsiya faoliyatini rag‘batlantirish, soliq imtiyozlari berish va innovatsion dasturlarni amalga oshirish orqali tarmoqda investitsion faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Sxemada ko‘rsatilganidek, investitsiya resurslarini jalb qilish jarayoni bank kreditlari, xususiy kapital va davlat-xususiy sheriklik loyihalari orqali amalga oshiriladi. Bu jarayonda yirik qurilish kompaniyalari loyihalarni boshqarish, investitsiyalarni tashkil etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etishda asosiy boshqaruv sub’ekti sifatida ishtirok etadi.

Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot markazlari, innovatsion infratuzilma elementlari (texnoparklar, klasterlar) hamda kichik qurilish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik qurilish sohasida innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, BIM texnologiyalari, raqamli modellashtirish tizimlari va zamonaviy qurilish materiallaridan foydalanish qurilish jarayonlarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega (1-rasm).




1-rasm. Qurilish tarmog‘ida kichik va yirik biznes sub’ektlari integratsiyasiga asoslangan investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmi

Qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes sub'ektlari o'rtasida kooperatsiya va klaster aloqalarining shakllanishi qurilish jarayonlarining integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Bu esa resurslardan samarali foydalanish, qurilish ishlari muddatlarini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish hamda sinergetik iqtisodiy samaraga erishish imkonini beradi. Natijada investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmining amal qilishi tarmoqdagi integratsiya munosabatlarini mustahkamlab, umumiy iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Mazkur mexanizm investitsiya resurslarini jalb qilish va samarali taqsimlash, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish, kooperatsiya va klaster munosabatlarini rivojlantirish hamda raqamli texnologiyalar asosida boshqaruvni tashkil etish kabi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi. Ushbu elementlarning o'zaro bog'liq holda amal qilishi qurilish tarmog'ida texnologik yangilanish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Integratsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda investitsiya qaytarimi (ROI), mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish xarajatlari va rentabellik ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Shu bilan birga, sinergetik samara quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$E_s = P_{ij} - (P_i + P_j)$ Agar $E_s > 0$ bo'lsa, integratsiya iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.

Integratsiya darajasini baholash uchun integratsiya indeksi qo'llaniladi:

$$I_i = \frac{C + T + R}{3}$$

Bu yerda kooperatsiya, texnologik hamkorlik va resurslardan birgalikda foydalanish darajalari hisobga olinadi. Indeksning yuqori qiymati integratsiya munosabatlarining rivojlanganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, investitsion-innovatsion mexanizmning samarali amal qilishi qurilish tarmog'ida xarajatlarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va loyihalarni amalga oshirish muddatlarini qisqartirish orqali sinergetik samarani ta'minlaydi. Bu esa kichik va yirik biznes sub'ektlari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va tarmoqning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalar integratsiyasiga asoslangan investitsion-innovatsion mexanizmlarni takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi.

Jumladan, amaliy tahlillar asosida aniqlandiki, kichik va yirik korxonalar o'rtasida kooperatsiya munosabatlarining rivojlanishi resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda qurilish ishlarini amalga oshirish muddatlarini qisqartirishga xizmat qiladi. Integratsiya jarayonlari natijasida ishlab chiqarish xarajatlari o'rtacha 10–15 foizga kamayishi va mehnat unumdorligining oshishi kuzatildi.

Hisob-kitob natijalariga ko'ra, qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalar o'rtasidagi integratsiya indeksi 0.65–0.70 oralig'ida shakllangan bo'lib, bu o'rtacha darajadagi integratsiyani anglatadi. Bu holat tarmoqda kooperatsiya munosabatlari mavjud bo'lsa-da, ularni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, sinergetik samara ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan faoliyat natijasida umumiy iqtisodiy natija alohida korxonalar faoliyati natijalarining yig'indisidan yuqori bo'ladi. Ayniqsa, investitsiya va innovatsiyalarni birgalikda amalga oshirish holatlarida sinergetik samaraning o'sishi kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, qurilish tarmog'ida BIM va boshqa raqamli texnologiyalarni joriy etish loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish, xatolarni kamaytirish va moliyaviy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradi.

Umuman olganda, taklif etilgan investitsion-innovatsion mexanizmni amaliyotga joriy etish qurilish tarmog'ida iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslandi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida qurilish tarmog'ida kichik va yirik biznes sub'ektlari integratsiyasiga asoslangan investitsion-innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot jarayonida aniqlandiki, qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalarning alohida faoliyati resurslardan foydalanish samaradorligini to'liq ta'minlamaydi. Ularning integratsiyasi esa moliyaviy, texnologik va mehnat resurslarini birlashtirish orqali sinergetik samaraga erishish imkonini beradi. Shuningdek, investitsion va innovatsion jarayonlarning uyg'unlashuvi qurilish tarmog'ida texnologik yangilanishni jadallashtiradi va raqobatbardoshlikni oshiradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, qurilish tarmog'ida integratsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda integratsiya indeksi va sinergetik samara ko'rsatkichlaridan foydalanish maqsadga muvofiqligi asoslandi. Bu ko'rsatkichlar korxonalar o'rtasidagi hamkorlik darajasi va uning iqtisodiy natijalarga ta'sirini kompleks baholash imkonini beradi.

Shu bilan birga, innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi va raqamli texnologiyalarni joriy etish investitsion-innovatsion mexanizm samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil ekanligi aniqlandi. Xususan, BIM texnologiyalari va raqamli boshqaruv tizimlari qurilish jarayonlarini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchi, qurilish tarmog'ida kichik va yirik korxonalar o'rtasida klaster va kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarur. Bu korxonalar o'rtasida barqaror iqtisodiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Ikkinchi, investitsion-innovatsion faoliyatni rag'batlantirish maqsadida davlat tomonidan soliq imtiyozlari, subsidiyalar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish lozim.

Uchinchi, qurilish tarmog'ida innovatsion infratuzilmani, jumladan texnoparklar, innovatsion klasterlar va injiniring markazlarini rivojlantirish orqali ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish tizimini kuchaytirish zarur.

To'rtinchi, qurilish sohasida raqamli texnologiyalarni, xususan BIM va raqamli platformalarni keng joriy etish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish va axborot almashinuvini takomillashtirish maqsadga muvofiq.

Beshinchi, integratsiya jarayonlarining samaradorligini baholashda integratsiya indeksi, sinergetik samara va investitsiya qaytarimi kabi ko'rsatkichlardan kompleks foydalanishni amaliyotga joriy etish zarur.

Oltinchi, kichik va yirik korxonalar o'rtasida vazifalarni samarali taqsimlash asosida hamkorlik modellarini ishlab chiqish va joriy etish orqali tarmoqda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin.

Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, qurilish tarmog'ida investitsion-innovatsion mexanizmlarni takomillashtirish va korxonalar integratsiyasini kuchaytirish mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Construction works in the Republic of Uzbekistan. Toshkent, 2026.
2. OECD. OECD Compendium of Productivity Indicators 2025. Paris: OECD Publishing, 2025.
3. Gazeta.uz. World Bank approves $800 million loan to Uzbekistan. 2023.
4. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ
5. Nallari R., Yusuf S., Griffith B. A Primer on Policies for Jobs. – Washington: World Bank, 2010.
6. Ademola O.J. Working capital management and profitability of selected manufacturing firms // European Journal of Accounting, Auditing and Finance Research. – 2014. – Vol. 2(3). – P. 10–21.
7. Mickiewicz T., Nyakudya F.W., Theodorakopoulos N. Resource endowment and opportunity cost effects in entrepreneurship // Small Business Economics. – 2017. – Vol. 48. – P. 953–976.
8. Kellermanns F., Walter J., Crook T.R., Kemmerer B., Narayanan V. The resource-based view in entrepreneurship // Journal of Small Business Management. – 2016. – Vol. 54(1). – P. 26–48.
9. Boso N., Danso A., Leonidou A., Uddin M. Financial resource slack and sustainability // Journal of Business Research. – 2017. – Vol. 80. – P. 247–256.
10. Яшин С.Н., Амбацумян А.Э., Кулыгина Е.Н. Оценка эффективности инновационной деятелности // Экономика и предпринимателство. – 2015. – №6.
11. Захарова Ю.В., Купцов А.В. Инновационная деятелност предприятий // Экономика и предпринимателство. – 2016. – №8.
12. Кракович В.В. Интегрированное управление ресурсами малого инновационного предприятия: дисс. – СПб., 2018.
13. Нестеренко Ю.Н. Развитие малых инновационных предприятий: автореф. дисс. – М., 2008.
14. Парфенова С.Л. Оценка эффективности государственной поддержки инновационных предприятий // Наука. Инновации. Образование. – 2016. – №4.
15. Соменкова Н.С. Методика оценки инновационного развития // Российское предпринимателство. – 2017. – №6.
16. G'уломов С.С., Абдуллаев А.М. Инновацион салоҳият ва иқтисодий ривожланиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2016.
17. Абдураҳманова Г.К. Вентуре инвестмент энвиронмент ин Узбекистан // Асадемисиа. – 2020. – Вол. 10(4).
18. Abdullaev Yo., Karimov F. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. – T.: Mehnat, 2010.
19. Аллаяров Ш.А. Регуляторй сандбох анд финтеч девелопмент // Интернатионал Финансе анд Ассоунтинг. – 2020.
20. Qosimova D.S. Tadbirkorlik va innovatsiyalar. – T.: 2023.
21. Эrgashxodjaeva Sh.J Innovatsion marketing. – T.: Iqtisodiyot, 2014.
22. Karimov Inomjon Ortikbayevich. Factors affecting the effectiveness of investment management. Synergy: Cross-Disciplinary Journal of Digital Investigation (2995-4827). Vol. 2 No. 4 (2024)
23. Karimova I. Qurilish sohasida investitsion faoliyatni shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari //Muhandislik va Iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal //2025-yil 5-son 720-727b. (08.00.00)
24. Karimov I. Qurilish korxonalarida investisiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal // 2025-yil 4-son, 894-899 (08.00.00)
25. Karimov I.O. Foreign experience in investment management in construction enterprises and ways of its application in our country. //Intent Research Scientific Journal-(IRSJ) // Volume 4, Issue 4, April - 2025-y, 6-14

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 3**

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100